



## PEDAGOGIK ODOB.PEDAGOGNING MUOMALA ODOI

**Komilova Barno Maxmudjon qizi**

*Andijon davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda har qanday kasb egasi avvalo odob axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy. Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bu shirinso'zlik insonning atrofdagi odamlar bilan yaqin munosobatda bo'lishiga intilish deb ta'riflanadi. Shu orqali o'quvchilar ko'ngliga yo'l topa oladi. O'qituvchilarning yana bir majburiyatlaridan biri bu muloqot jarayonidir. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy ta'lim pedagoglarda o'qituvchi odobi fazilatlarini rivojlantirish yo'llari va pedagog odobining tarixiy ildizlari, Pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishning xususiyatlari, Jamiatning o'qituvchi shaxsiga munosabati, o'quvchilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilgan, ishni tashkil qilishga doir tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, odob-axloq, xulq, axloq tarbiyasi, shaxs kamoloti, madaniyat, o'quvchi va o'qituvchi o'rtaсидаги munosobat.

### Kirish

O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi, bilimdoni bo'lmog'i zarur. O'qituvchi kasbiy axloq odobi normalarini mukammal egallagan bo'lsagina, u kasb fidoyisi bo'la oladi. Bugungi kunda o'qituvchining ana shunday fidoyiligi har qachongidan muhim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi zimmasidagi masuliyat, axloq-odob, fikr tarbiyasi orqali talabala yoshlarni ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiya eta olish masalalar yoritib o'tilgan. Pedagogik muloqot madaniyatni o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriysi sifatida muomala o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida: 1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi. 3. Sharqona udum va urf -odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi. 2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi. 4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi. O'qituvchilik kasbi –



axloqiy xarakterga ega bo'lgan insonparvar kasblardan biri. O'quvchilarga insoniy munosabatda bo'lish maktab o'qituvchisi faoliyatining asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu o'qituvchidan bolalarni sevish, ularning qadr-qimmatini hurmat qilish, sho'xliklariga bardoshli ularni jismoniy va axloqiy majruh etuvchi narsalarga murosasiz bo'lishni talab etadi. Muallimning odob -axloqi, insonparvarligi bolalarning kelajagi uchun g'amxo'rlik qilish, ularni hayotda, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlashga intilishida namoyon bo'ladi. Hushyorlik , pedagogik muomala, diqqat –e'tiborli bo'lish, bolalarni sevish, ularga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchini anglash; mas'uliyatli talabchan va adolatli bo'lish; bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik kabilalar o'qituvchiga xos kasbiy axloqiy fazilatlaridir. O'rganilgan ilmiy –pedagogik manbalar shundan dalolat beradiki, bo'lajak o'qituvchilarda kasb odob fazilatlarini shakillantirish hozirgi kundagi dolzarb muammo bo'lib, pedagogika fanida bu muammoning yechimiga yetarlicha e'tibor berilmagan.Bundan tashqari Pedagogik amaliyatda — O'qituvchi odobi — tushunchasi tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi. Tor ma'noda o'qituvchi xulqining amaliy jihatini, keng ma'noda esa o'qituvchining kasb axloqini anglatadi. — O'qituvchi odobining muhim, asosiy belgilari qatoriga quyidagilar kiradi: umuminsoniy va milliy axloqni qonuniyatları, tamoyillari, tushunchalari, mezonlari, talablariga amal qilish; pedagogik jarayon va pedagogik faoliyatning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga binoan ularni oydinlashtirish, aniqlashtirish; umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatları va vazifalari muallimning o'quvchilar, kasbdoshlar, ota –onalar, maktab raxbarlari bilan muomala-munosabatlarida namoyon bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda, pedagogik mehnatning samaradorligida namoyon bo'lishi kerak .Pedagogning odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatları va vazifalari va tamoyillari ,tushunchalari, talablari mezonlarini ta'lim –tarbiya jarayonida oydinlashtirilib pedagogning ta'lim oluvchiları kasbdoshları ota-onalario ta'lim muassasalari raxbarlari bilan minosabatlarida namoyon bo'ladigan hissiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisi .

### Pedagogik odob

O'qituvchining odobi mohiyati asosiy mazmuni pedagogic faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlar ifodalanadi.Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari juda ham zarur.O'qituvchi odobining normalari har bir muallinning shaxsiy fikriga,axloqiy fazilati va etqotiga aylamioshi lozim .axloqiy etiqod va sifatlar o'qituvchining dars burish jarayonida ota- ona va boshqalar bilan munosabatlarida kundalik turmushda ,shaxsiy munosabatda axloqiy tasir o'tkazishda bilanadi.Muomala odobi o'z tabiatli mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisdir.Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomila odobida namoyon bo'ladi.Odob - bu har bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi.Axloq - jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq odob normalari.Madaniyat -



jamiyatning unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiylari, aqliy yutuqlar majmuasi. Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiylari intellektual fazilatlar majmuasidir. Mustaqil fikrlash - bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Tafakkur - inson ongidagi mavjud ilmiy-hayotiy bilimlar majmularining keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash. O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar tushunchalariga mos keladi. O'qituvchi odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, talablari, mezonlarini ta'lim – tarbiya jarayonida oydinlashtirib, muallimning o'quvchilar, o'z kasbdoshlari, ota – onalar, maktab raxbarlari bilan muomala – munosabatlarida ifodalanadigan axloqiy xususiyatdir. O'qituvchi odobining moxiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muxim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini va xotirjamligini ta'minlaydi. O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so'zlashishni bilish lozim. So'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim. O'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидagi muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi etarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak, hamda o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak: O'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatidagi amaliy va emotsiyonaloqa bog'lashning pedagogik jihatdan asoslangan holda birga qo'shib olib borilishi. O'quvchilar bilan munosabatda osoyishta qat'iylik, muvozanatlilik va nutqning ifodaliligi. O'qituvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotida quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi lozim: tashqi qiyofani nazorat qilish, nutqni egallah, pedagogik munosabat madaniyatini egallah, tashkilotchilik mahorati, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish uslublarini egallah.

#### Munosabatlarni boshqarish uslublari:

- Avtoritar uslub:** O'qituvchi gurhning faoliyat yunalishini shaxsan o'zi belgilaydi, kim - kim bilan o'tiradi, kim bilan ishlaydi o'qituvchi o'zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar tashabbusiga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko'rsatma, instruktsiya, ogohlantirish.
- Demokratik uslub:** O'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga etkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtiroy etishga undaydi. O'zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalashda deb biladi, har bir o'quvchi rag'batlantiriladi, unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, o'z - o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o'qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olib vazifalarni optimal



tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag'batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli - iltimos, maslahat, axborot tarzida bo'ladi.

**3.Liberal uslub:**O'qituvchi jamaa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko'rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o'zini olib qochadi.

O'qituvchining o'quvchilarga munosabati uning dastlabki munosabati va maqsadlariga bog'liq. Agar axloqiy munosabat bolalar bilan sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga yo'naltirilganlik bo'lsa, unda gumanistik axloq va Kantning qat'iy. O'qituvchining o'quvchilarga munosabati, birinchi navbatda, uning pedagogik vositalari rag'batlantirish va jazolash kabi ta'sir qilish usullari va shakllarining nisbatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining axloqiy madaniyati, oz o'quvchilarini hurmat qila olishi oquvchilar mehnatini baholashda namoyon bo'ladi. O'qituvchi rasmiy ravishda yoki "o'zi uchun" baho qo'yadi - har qanday holatda ham u o'quvchilarni, ularning xatti-harakatlarini, bilimlarini, qobiliyatlarini baholaydi, so'ngra uning bahosi qandaydir tarzda bir vaqtning o'zida o'z o'quvchilariga munosabat ko'rsatkichi sifatida ishlaydi. O'qituvchining o'quvchilarga munosabati uning dastlabki munosabati va maqsadlariga bog'liq. Muomala jarayonida o'quvchi yoki talaba xulqi ijtimoiy qonun - qoidalar maromiga zid kelsa, u holda uni hatti harakati qoralanadi, e'tiroz, tanbeh, eslatish kabi vositalar bilan ta'sir o'tkaziladi. Muomala vaqtida odob, odoblilik muhim ahamiyatga ega bulib, uning muvaffaqiyatli kelishini ta'minlaydi. Uning asosiy vazifalari (axborot almashinuv, o'zaro ta'sir, o'zaro idrok qilish) to'g'ri amalga oshirishni idora qilib turadi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduvalieva M.I. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasbiy moslashuvini shakllantirish va rivojlantirish: Ped. fanl. nomz. diss. - T.: 2008.
2. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, 7, 240-242. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1197>.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. T. 2007.
4. Azizzodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: TDPU 2003. 175 b.
5. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
6. МИРЗАКАРИМОВА МАХЛИЁХОН МАДАМИНЖОНОВНА (2022) "ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ", Novateur Publications, (1), pp. 1–128. Available at:



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



<http://novateurpublication.org/index.php/np/article/view/23> (Accessed: 26 August 2023).

7. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
8. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131.
9. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.
10. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
11. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.
12. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
13. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 410-415.
14. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. qizi. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78–83. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6393>.
15. Tojiboyev M. U., Uzoqjonova M. D. Q. Farg'ona vodiysida tarqalgan ruderal shifobaxsh o'simliklar, ularning tarqalishi va ahamiyati //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 8. – С. 101-107.
16. Uzoqjonova, M. (2023). Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'limi tizimi. Science and Education, 4(9), 344–347. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6297>.
17. Uzoqjonova M. D. Q. Inson salomatligida dorivor o'simliklarning xususiyatlari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 7. – С. 38-42.
18. Uzokjonova, M. (2023). STEAM technology and the importance of gamification in it. Science and Education, 4(10), 365–368. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6361>.